

**O‘QITUVCHI – TALABA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH
OMILLARI**
Baxramova Madina Rasulovna
“Umumiy pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: mazkur maqolada ta’lim jarayonida talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish orqali, ularni rivojlantirish va tarbiyalashga qaratilgan, o‘qituvchi va talaba orasidagi o‘zaro faoliyat yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: jarayon, ta’lim, tarbiya, faoliyat, o‘quv materiali, metod, ta’sir, maqsad, omil, samara.

**ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
ПЕДАГОГА и СТУДЕНТА**
Бахрамова Мадина Расуловна
Преподаватель кафедры «Общая педагогика»
Бухарский государственный педагогический институт

Аннотация: в данной статье показаны способы взаимодействия преподавателя и студента, направленные на развитие и воспитание учащихся путем формирования знаний, умений и навыков в образовательном процессе.

Ключевые слова: процесс, образование, обучение, деятельность, учебный материал, метод, воздействие, цель, фактор, эффект.

**FACTORS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TEACHER AND STUDENT
ACTIVITIES**
Bakhramova Madina Rasulovna
Lecturer at the Department of General Pedagogy
Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: this article shows ways of interaction between a teacher and a student, aimed at the development and education of students through the formation of knowledge, skills and abilities in the educational process.

Key words: process, education, training, activity, educational material, method, impact, goal, factor, effect.

Ta’lim-faoliyat turi sifatida o‘zaro ikki tomonlama serqirra jarayon hisoblanib, unda o‘qituvchilar va talabalar ishtirok etadi. Ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchisi sifatida o‘qituvchining kasbiy hamda shaxsiy imidji uning butun faoliyati mazmunini namoyon qilib, jamiyat manfaatlariga mos ravishda doimo jamoatchilik nazari markazida turadi.

O‘qituvchining shaxsiy imidjiga barcha ta’lim oluvchilar uchun derli bir xil talablar qo‘yilib, ular o‘z kasbiga muhabbat, fanini bilish, yuksak professionallik, xolisonalik, tashkilotchilik, talabchanlik hamda o‘z faoliyatini boshqarishda namoyon bo‘ladi. Faqatgina o‘qituvchining shaxsiy-individual xislatlari asosida o‘zining “alohida” imidji shakllanadi.

O‘qituvchi va ekspertlar uchun o‘zaro ta’sir jarayonida muloqot hamda kommunikativlik ustunlik qilsa, talabalar uchun ko‘proq psixologik jihatlar ya’ni, o‘zlariga nisbatan qanday muomalada bo‘linishi, ularni tushunish va qanday tarzda qabul qilinishlari muhim hisoblanadi. O‘z navbatida imidji orqali namoyon bo‘ladigan o‘qituvchi shaxsi pedagoglarning o‘zlariga qaraganda, talabalar uchun muhimroq ahamiyatga ega bo‘ladi.

Har ikkita o‘qituvchining biri uchun shaxsiy imidjini hosil qilish zamirida o‘z shaxsiyatini ustun qo‘yishga yo‘naltirilgan psixologik motivatsiya yotadi. Bu esa ularni o‘zaro ta’sir faoliyatida yopiq subyektga aylantirib qo‘yadi. Shu sababli o‘qituvchi va talabalar orasidagi hamkorlik munosobatlari darajasini o‘zgartirishga qaratilgan ijtimoiy monitoring modelini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim sharoitida oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayoni kundankunga murakkablashib borayotganligi sir emas. Endilikda, o‘qituvchi uchun o‘z mutaxassisligini a’lo darajada bilish orqali auditoriyada to‘plangan talabalarga ulkan bilimlar bazasini berish yo‘nalishidagi kasbiy kompetentligini namoyon qilishning o‘zi kamlik qiladi.

Zamonaviy faol o‘qituvchilar nafaqat o‘z fanlari bo‘yicha chuqur bilimlarini yetkazish, balki talabalar haqida ham ba’zi ma’lumotlar, ya’ni ularning ushbu bilimlarni qanday tarzda o‘zlashtirishlari haqida ham tasavvurga ega bo‘lishlari zarur. Bundan tashqari o‘qituvchilar o‘zlariga tanish bo‘lmagan, ammo yuksak

samaralariga beradigan turli o'qitish metodlari va baholash shakllarini faoliyat mazmunlariga singdirishga majbur bo'ladilar.


Talabalar esa o'quv jarayoniga faol jalb qilinislari natijasida o'rgangan materiallarni oson tushunib, yodda saqlab, o'z navbatida tez o'zlashtiradilar.

O'qitish metodlari- ta'lim jarayonida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish orqali, ularni rivojlantirish va tarbiyalashga qaratilgan, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro faoliyat yo'llari hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot o'qituvchiga ulkan miqdordagi metodlar, shuningdek o'qitish va tarbiyalashning bir qator usullarini taqdim etadi. O'qituvchining ijodiy yondashuvi esa o'quv jarayonida aynan bir metodlarni samarali qo'llash orqali qo'yilgan maqsad yo'lida eng yaxshi natijalarga erishish holatida namoyon bo'лади.

O'qitish paydo bo'lgan dastlabki kundan boshlab va hozirgi kunga qadar o'qituvchi va o'quvchi(talabalar) orasidagi o'zaro ta'sirning 3 ta asosiy ko'rinishlari mavjud bo'lib kelmoqda.

1. Nofaol metod



O'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro ta'sirning bunday shaklida o'qituvchi asosiy mavqega ega bo'lib, o'quv jarayonini boshqaruvchisi, o'quvchi esa nofaol tinglovchi rolini bajaradi.

O'qitishning passiv shakli haqida gapiradigan bo'lsak, o'qituvchining o'quvchilar bilan aloqasi so'rovlari, nazorat ishlari, mustaqil ishlar testlar va x.k.z. tarzida amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llaydigan o'qituvchi-tarbiyachilar nofaol metodlarni samarasiz deb hisoblaydilar. Bunday metodda verbal bayon orqali tayyor bilimlardan ma'lumotlar beriladi, alohidalikdan umumiylilikka induktiv mantiqga asoslangan xolda, mexanik xotira bilan, reproduktiv

(o‘zgartirishsiz eslash) bayonda namuna buyicha o‘qitish amalga oshiriladi. Natijada ta’lim oluvchilarni sustlikka, sust nutq qobiliyatiga olib keladi.


Ammo nofaol metodlarning ba’zi ijobiy tomonlari ham mavjud.

O‘qituvchi pozitsiyasi tomonidan darsga tayyorlanishda yengillik, shuningdek qisqa vaqt mobaynida bir dars mobaynida katta hajmdagi o‘quv materialini o‘quvchilarga taqdim etish passiv metodning asosiy “quroli” hisoblanadi.

Ko‘pgina o‘qituvchilar nofaol metodning bunday xususiyatlarini samarali deb hisoblaydilar va undan keng foydalanadilar. Bunday metodni qo‘llaydigan tajribali o‘qituvchilar, o‘quvchilarga aniq qo‘yilgan maqsad orqali o‘quv predmetini chuqur o‘zlashtirishlarini ta’minlaydilar.


Ma’ruza- nofaol metod orqali darsni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanib, oliy o‘quv yurtlarida o‘z oldiga ma’lum maqsad qo‘ygan, ya’ni o‘quv predmetini ongli ravishda o‘zlashtirishni mo‘ljallagan shaxslar uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

2.Faol metod



O‘qituvchi va o‘quvchi orasidagi o‘zaro ta’sir shakli hisoblanib, ular aniq maqsadga qaratilgan jarayon, ya’ni o‘quv mashg‘uloti davomida faol munosobatda bo‘lishadi. O‘quvchi shaxsi o‘z navbatida passiv tinglovchi emas, balki o‘quv jarayonining teng huquqli ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

3.Interfaol metod



Interfaol («Inter» -o‘zaro, «act» - faoliyat) –o‘quvchilarning nafaqat o‘qituvchi bilan balki boshqa o‘quvchilar bilan ham o‘zaro ta’sir shakli hisoblanadi.

O‘qituvchi bu jarayonda ta’lim oluvchilarning mustaqil, faol bilish faoliyatida tashkilotchi, ularning kompetentli maslaxatchisi va yordamchisi hisoblanib, fakatgina ta’lim oluvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalari nazoratini ta’minlab beribgina kolmay, balki kutilayotgan kamchiliklarga o‘z vaktida o‘zgartirishlar kiritish maqsadida o‘quv materillarini qay darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlab beradi.

Bu ta’sir natijasida o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni ishlab chikishga, faol bilim ortirishga, ijodiy-tadqiqot faoliyatlariga asoslangan, muammolarni izlashda va ularni yechishga yunaltirilgan, olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llashda ta’limning faol usullari keng va samarali qo‘llaniladi.

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Д. Didaktik talim vositalari talim jarayoni samaradorligini taminlash omili sifatida //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 81-86.
2. Айнпгейн В. Преподаватель и студент: искусство общения // Высшее образование в России. – 2000. – № 6. – С. 85–91.
3. Гревцева Г. Я. и др. Общая педагогика. – 2020.
4. Abdullaev K., Juraev B., Khabibova G. Food quality and safety control as an important factor of physical development //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 460. – С. 11001.